Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2024- yilning yanvar-iyun oylarida Sirdaryo viloyati bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o‘rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 10 890,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2023- yilning yanvar-iyun oylari bilan taqqoslaganda 5,1 % ga o‘sdi.

YAHM deflyator indeksi 2023- yilning yanvar-iyun oylari narxlariga nisbatan 113,7 % ni tashkil qildi.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YAIMning shakllanishida Sirdaryo viloyatining qo‘shgan hissasi 1,9 % ga yetdi.

## 2024- yilning yanvar-iyun oylarida Sirdaryo viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot






- YAHM o‘sish sur’ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo‘shgan hissasi

## 2024- yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’atlari

| | Mlrd. so‘m | | O‘sish sur’atlari, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da |
|---|---|---|---|
| | *2023- yil* | *2024- yil* | |
| **I. YAHM, jami** | **9 110,6** | **10 890,0** | **105,1** |
| *shu jumladan:* | | | |
| tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 8 877,2 | 10 672,9 | 105,2 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 233,4 | 217,1 | 101,4 |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati** | **8 877,2** | **10 672,9** | **105,2** |
| **qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** | **2 898,2** | **3 238,3** | **103,6** |
| **sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)** | **3 312,1** | **4 205,9** | **106,1** |
| sanoat | 2 664,3 | 3 494,6 | 106,8 |
| qurilish | 647,8 | 711,3 | 103,2 |
| **xizmatlar** | **2 666,9** | **3 228,7** | **105,8** |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 429,6 | 506,6 | 109,5 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 287,6 | 369,0 | 116,8 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 1 949,7 | 2 353,1 | 103,4 |

# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH



Quyida keltirilgan infografikadan ko‘rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 11 862,7 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 3,1 % ga yuqoridir.

## 2024- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi

*(ming so‘mda)*

10 115,0 — 2023- yil

11 862,7 — 2024- yil

## 2024- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o‘sish sur’atlari

*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)*

2023- yil — 102,3 %

2024- yil — 103,1 %

## Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi

*(jamiga nisbatan % da)*

| | *2023- yil* | *2024- yil* |
|---|---|---|
| **I. YAHM, jami** | **100,0** | **100,0** |
| *shu jumladan:* | | |
| tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 97,4 | 98,0 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 2,6 | 2,0 |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati** | **100,0** | **100,0** |
| **qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** | **32,6** | **30,3** |
| **sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)** | **37,3** | **39,4** |
| sanoat | 30,0 | 32,7 |
| qurilish | 7,3 | 6,7 |
| **xizmatlar** | **30,1** | **30,3** |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 4,8 | 4,7 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 3,2 | 3,5 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 22,1 | 22,1 |

# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

2024- yilning yanvar-iyun oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,0 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,0 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 30,3 % ni, sanoat tarmog‘i 32,7 % ni, qurilish 6,7 % ni va xizmatlar sohasi 30,3 % ni tashkil qildi.

## Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi *(jamiga nisbatan % da)*

**2023- yil**



- 2,6 %
- 32,6 % Qishloq, o‘rmon va baliqchilk xo‘jaligi
- 30,0 % Sanoat
- 7,3 % Qurilish
- 30,1 % Xizmatlar

**2024- yil**



- Qishloq, o‘rmon va baliqchilk xo‘jaligi 30,3 %
- Sanoat 32,7 %
- Qurilish 6,7 %
- Xizmatlar 30,3 %
- 2,0 %

Yalpi qo‘shilgan qiymat — Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM oʻsishiga qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi tarmogʻi 1,2 f.p. (2023- yilning yanvar-iyunida – 1,7 f.p.), sanoat tarmogʻi – 2,0 f.p. (2023- yilning yanvar-iyunida – 1,8 f.p.), qurilish tarmogʻi – 0,2 f.p. (2023- yilning yanvar-iyunida – salbiy 0,5 f.p.) va xizmat koʻrsatish sohasi – 1,7 f.p. (2023- yilning yanvar-iyunida – 1,2 f.p.) ijobiy hissa qoʻshdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning oʻsishi hisobiga YAHM 0,04 f.p. (2023- yilning yanvar-iyunida – 0,2 f.p.)ga koʻpaydi.

## 2024- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM oʻsishida tarmoqlarning hissasi

*(jamiga nisbatan % da)*



# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

2024- yilning yanvar-iyun oylarida YAHMning oʻsishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy oʻsish sur’atlari bilan bogʻliqdir. Oʻsish sur’atlari qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida 103,6 % (YAHMning tarmoqlar boʻyicha tarkibidagi ulushi – 30,3 %), sanoatda – 106,8 % (32,7 %), qurilishda – 103,2 % (6,7 %), xizmatlar sohasida – 105,8 % ni (30,3 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida oʻsish sur’atlari savdo, yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlarda 109,5 % (4,7 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 116,8 % (3,5 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,4 % dan (22,1 %) iborat boʻldi.

## Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha mutlaq oʻsish sur’atlari

*(oʻtgan yilning mos davriga nisbatan % da)*

| 2023- y. | | 2024- y. |
|---|---|---|
| 4,4 % | YAHM | 5,1 % |
| 5,2 % | Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi | 3,6 % |
| 6,7 % | Sanoat | 6,8 % |
| -7,0 % | Qurilish | 3,2 % |
| 4,4 % | Xizmatlar | 5,8 % |

2024- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM deflyatori indeksi 2023- yilning yanvar-iyun oylaridagi narxlarga nisbatan 113,7 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko‘rsatkichlari sanoatda – 122,8 % va xizmatlarda – 114,4 % qayd etildi.

**Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha deflyator indeksi**
*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)*

| | 2023- y. | 2024- y. |
|---|---|---|
| YAHM | 115,2 % | 113,7 % |
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 113,6 % | 107,8 % |
| Sanoat | 125,5 % | 122,8 % |
| Qurilish | 115,6 % | 106,4 % |
| Xizmatlar | 112,2 % | 114,4 % |

# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

2024-yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik 6 482,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi (2023- yilning yanvar-iyun oylarida – 5 413,6 mlrd. so‘m). YAHMdagi ulushi 60,7 % ni (2023- yilning yanvar-iyun oylarida – 61,0 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog‘liq.

## Yanvar-iyun oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi

*(jamiga nisbatan %da)*

| | Hajmi, mlrd.so‘m | Ulushi, % da |
|---|---|---|
| 2023- yil | 5 413,6 | 61,0 % |
| 2024- yil | 6 482,0 | 60,7 % |



